



Toshkent davlat  
sharqshunoslik universiteti

# XXI ASR: FAN VA TA'LIM MASALALARI

ilmiy elektron jurnali

ISSN: 2181-9874



EDUCATION

2025

## ERONDAGI SIYOSIY PARTIYALAR TIZIMI SHAKLLANISHIDA ANJUMANLARNING ROLI

**Murodjon Qoraboyev**

Mustaqil tadqiqotchi

Katta o‘qituvchisi

Oriental universiteti

E-mail: [murodjonqoraboyev715@gmail.com](mailto:murodjonqoraboyev715@gmail.com)

**Annotatsiya.** Maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Eronda kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar konstitutsiyaviy modernizatsiya modeli doirasida kompleks tahlil qilingan. Konstitutsiyaviy inqilob davrida vujudga kelgan anjumanlar (mahalliy vakillik kengashlari)ning siyosiy safarbarlik, manfaatlar ifodasi hamda dastlabki vakillik institutlari sifatidagi o‘rni ilmiy jihatdan tadqiq etilgan. Shuningdek, Eronning yarim mustamlaka holatiga tushib borishi, xorijiy kapitalning iqtisodiy ustunligi, markaziy davlat hokimiyatining institutsional zaifligi va mazkur omillarning milliy ong hamda siyosiy tafakkur shakllanishiga ko‘rsatgan ta’siri tahlil qilingan. Alohida e’tibor Eron Sotsial-demokratik partiyasi va so‘l qanot siyosiy harakatining institutsional rivoji, markaziy hokimiyat bilan mahalliy muxtoriyatlar o‘rtasidagi munosabatlar hamda mazkur ziddiyatlarning siyosiy jarayonlarga ta’siriga qaratilgan. Konstitutsiyaviy inqilob Eron siyosiy madaniyatida zamonaviy partiyaviy tizim va vakillik institutlarining shakllanishida muhim tarixiy bosqich bo‘lgani ilmiy asoslangan.

**Kalit so‘zlar:** Eron Konstitutsiyaviy inqilobi; siyosiy modernizatsiya; anjumanlar; siyosiy partiyalar; Eron Sotsial-demokratik partiyasi; so‘l qanot harakati; milliy ong; mustamlakachilik; siyosiy safarbarlik; konstitutsiyaviy boshqaruv.

## РОЛЬ АНДЖУМАНОВ В ФОРМИРОВАНИИ СИСТЕМЫ ПОЛИТИЧЕСКИХ ПАРТИЙ В ИРАНЕ

**Муроджон Карабаев**

Независимый исследователь

Старший преподаватель Университета Ориентал

Электронная почта: [murodjonqoraboyev715@gmail.com](mailto:murodjonqoraboyev715@gmail.com)

**Аннотация.** В статье представлен комплексный анализ социально-политических процессов, происходивших в Иране в конце XIX – начале XX века, в рамках модели конституционной модернизации. Научно исследуется роль анджуманов (местных представительных советов), сформировавшихся в [www.sharqjurnali.uz](http://www.sharqjurnali.uz) DOI: [10.5281/zenodo.18509413](https://doi.org/10.5281/zenodo.18509413)

период Конституционной революции, как институтов политической мобилизации, выражения общественных интересов и зарождающихся форм представительной власти. Также анализируются процессы постепенного втягивания Ирана в полуколониальную зависимость, экономическое доминирование иностранного капитала, институциональная слабость центральной государственной власти и влияние данных факторов на формирование национального самосознания и политического мышления. Особое внимание уделяется институциональному развитию Иранской социал-демократической партии и левого политического движения, отношениям между центральной властью и местными автономиями, а также воздействию данных противоречий на политические процессы. Обосновано, что Конституционная революция стала важным историческим этапом в формировании современной партийной системы и институтов представительной власти в политической культуре Ирана.

**Ключевые слова:** Конституционная революция в Иране; политическая модернизация; анджуманы; политические партии; Иранская социал-демократическая партия; левое движение; национальное самосознание; колониализм; политическая мобилизация; конституционное управление.

## THE ROLE OF ANJUMANS IN THE FORMATION OF THE POLITICAL PARTY SYSTEM IN IRAN

**Murodjon Karabaev**

Researcher

Senior Lecturer at the Oriental Studies University

E-mail: murodjonqoraboyev715@gmail.com

**Abstract.** The article offers a comprehensive analysis of the socio-political processes that occurred in Iran during the late nineteenth and early twentieth centuries, within the framework of the constitutional modernization model. It examines the role of anjumans (local representative councils) that emerged during the Constitutional Revolution as institutions of political mobilization, articulation of social interests, and early forms of representative governance. The study also analyzes Iran’s gradual transition into a semi-colonial condition, the economic dominance of foreign capital, the institutional weakness of the central state authority, and the impact of these factors on the formation of national consciousness and political thought. Particular attention is paid to the institutional development of the Iranian Social Democratic Party and the

*left-wing political movement, as well as to the relations between central authority and local autonomies and the influence of these contradictions on political processes. The article substantiates that the Constitutional Revolution constituted a crucial historical stage in the formation of a modern party system and representative institutions within Iran’s political culture.*

**Keywords:** *Iranian Constitutional Revolution; political modernization; anjumans; political parties; Iranian Social Democratic Party; left-wing movement; national consciousness; colonialism; political mobilization; constitutional governance.*

## **KIRISH**

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Eron tarixi mamlakatning xalqaro iqtisodiy va siyosiy munosabatlar tizimida tobora chuqurroq mustamlakachilik qaramligiga tortilishi, uning amalda yarim mustamlaka davlatga aylanishi bilan xarakterlanadi. Yevropa davlatlarining Eron iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatga ega sohalarda imtiyozlar va monopoliyalarni qo‘lga kiritishi, shoh hokimiyatining institutsional zaifligi hamda markaziy boshqaruvning islohotlarni amalga oshirishdagi layoqatsizligi mamlakat ichki ijtimoiy-siyosiy vaziyatining keskinlashuviga olib keldi. Ayniqsa, milliy burjuaziya, savdo-sotiq bilan shug‘ullanuvchi qatlamlar va ruhoniylar orasida mustamlakachilikka qarshi norozilik kayfiyatining kuchayishi kuzatildi.

XIX asr oxiriga kelib Eronda burjua millatchiligi g‘oyalarining shakllanishi milliy ongning uyg‘onishi bilan uzviy bog‘liq bo‘ldi. Ilg‘or eron ziyolilari shoh hokimiyatining ichki va tashqi siyosatiga nisbatan tanqidiy munosabatni kuchaytirib, xorijiy kapitalning mamlakat iqtisodiyotini qaram holatga keltirayotgan mexanizmlarini ilmiy va publitsistik asarlar orqali fosh eta boshladilar. Mazkur g‘oyalarni targ‘ib etgan matbuot nashrlarining aksariyati mamlakat ichidagi senzura sababli xorijda chop etilgan bo‘lib, ular Yevropa davlatlarining Eronda yuritgan mustamlakachilik siyosatiga qarshi muhim g‘oyaviy platforma vazifasini o‘tadi.

Milliy ong va siyosiy fikrning shakllanishida xorijda faoliyat yuritgan eronlik muhojir ziyolilar tomonidan nashr etilgan ilg‘or gazetalar alohida o‘rin tutdi. Jumladan, Londonda chop etilgan “Kanun”, Istanbuldagi “Axtar”, Hindistonda tarqatilgan “Habib ul-Matin” kabi nashrlar mustamlakachilikka qarshi g‘oyalarning yoyilishi, milliy burjuaziya va ruhoniy doiralarning siyosiy jihatdan safarbar etilishida muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu nashrlar atrofida shakllangan intellektual muhit keyinchalik Erondagi islohotchilik harakatining g‘oyaviy asosini tashkil etdi.

## **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Ilg‘or ziyolilar faoliyati jamiyatdagi progressiv kuchlarning siyosiy ongini yuksaltirib, mamlakatni modernizatsiya qilish zaruratini ilmiy va amaliy jihatdan asoslab berdi. XX asr boshlariga kelib, islohot tarafdori bo‘lgan ziyolilar, savdogarlar va ayrim ruhoniy doiralar o‘zaro birlashib, mavjud siyosiy-iqtisodiy tizimni

transformatsiya qilishni maqsad qilgan dastlabki siyosiy uyushmalarni tashkil etishga kirishdilar.

Ushbu dastlabki siyosiy tuzilmalar ko‘p hollarda yopiq xarakterga ega bo‘lib, ayrim hollarda diniy-mafkuraviy tus kasb etgan. Ular faoliyatiga mason jamiyatlari va Yevropa siyosiy g‘oyalarining ta’siri ham sezilarli bo‘lgan. Eronda zamonaviy ma’nodagi siyosiy tashkilotlarning institutsional shakllanishi Muzaffariddin Shoh Qojar hukmronligining so‘nggi yillariga to‘g‘ri kelib, mazkur jarayon keyinchalik mamlakatda konstitutsion harakatning vujudga kelishi uchun ijtimoiy, g‘oyaviy va tashkiliy zamin yaratdi<sup>1</sup>.

XX asrning dastlabki yillarida Eronda jamiyatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-siyosiy islohotlarni amalga oshirish va an’anaviy boshqaruv tizimini yangilashni maqsad qilgan qator ma’rifiy hamda siyosiy yo‘nalishdagi tashkilotlar shakllana boshladi. Dastlab mazkur uyushmalar faoliyati asosan ma’rifatparvarlik g‘oyalarini targ‘ib etishga qaratilgan bo‘lib, ularning bosh vazifasi ta’lim tizimini rivojlantirish, jamoatchilik ongini uyg‘otish va jamiyatni zamonaviy taraqqiyot yo‘liga yo‘naltirishdan iborat edi. Ushbu jarayon Eron jamiyatida modern siyosiy tafakkur va fuqarolik ongining shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi.

Islohotchi harakat yetakchilaridan biri Mirzo Nasrullo Malek al-Mutakallimin (“Notiqlar shohi”) Tehron shahrida, yana bir yetakchi Mirzo Muhammad Alixon Tarbiyat (“Ma’rifat”) esa Tabrizda pedagogik yo‘nalishdagi jurnallar, ilmiy-ma’rifiy jamiyatlar, yangi usuldagi maktablar hamda kutubxonalar tashkil etishda faol ishtirok etdi. Mazkur tashabbuslar Eronda zamonaviy ta’lim tizimi elementlarining shakllanishi va jamoat fikrining rivojlanishida muhim institutsional asos bo‘lib xizmat qildi. Yangi tashkil etilgan ayrim ta’lim muassasalari diniy yo‘nalishga ega bo‘lib, ularning eng nufuzlilaridan biri qishloq xo‘jaligi sohasi mutaxassisi va savdogar Hoji Mirzo Yahyo Dovlatobodiy tomonidan tashkil etilgan maktab hisoblanadi. Keyinchalik u “Mo‘tadillar partiyasi” (Partiya-ye E’tedoliyun-e ammiyun) asoschilaridan biri sifatida Eron siyosiy hayotida faol ishtirok etdi<sup>2</sup>.

## MUHOKAMA

Mazkur ma’rifiy jamiyatlar negizida keyinchalik siyosiy mazmunga ega bo‘lgan turli tashkilotlar shakllandi. Jumladan, 1904-yilda Tehron shahrida Malek al-Mutakallimin boshchiligida tashkil etilgan Inqilobiy qo‘mita Eronda dunyoviy davlat barpo etish, diniy bag‘rikenglik tamoyillarini qaror toptirish hamda konstitutsiyaviy boshqaruv g‘oyalarini ilgari surdi. Ushbu qo‘mita tarkibiga Yahyo Dovlatobodiy, dunyoviy ta’lim tarafdori Jamoliddin Isfahoniy, shuningdek, Qojar sulolasi vakillari bo‘lgan Iskandariylar oilasining ikki a’zosi Yahyo Mirzo va Sulaymon Mirzo kirgan.

<sup>1</sup> Н.М. Мамедова Политические партии Ирана. Публично-правовые исследования. 2006 (1) Public law studies. С. 179-180.

<sup>2</sup> Edward G. Browne, The press and Poetry of Modern Persia, Cambridge University, P. 130.

Iskandariylar G‘arb siyosiy-falsafiy qarashlari bilan yaqindan tanish bo‘lib, keyinchalik Eron so‘l qanot siyosiy harakati tarixida muhim rol o‘ynadi<sup>3</sup>.

1903-yilda islohot tarafdorlari Mirzo Sulaymonxon Meykade rahbarligida Tehron shahrida “Milliy jamiyat” (“Anjoman-e melli”) nomli siyosiy tashkilotga asos soldindi. Ushbu jarayon haqida taniqli tarixchi Mehdi Malekzoda fikricha, erkinlik tarafdorlari rahbarlari uzoq yillar davomida umumiy qarashlarga ega bo‘lib, yashirin yig‘inlarda muntazam uchrashib kelganligi, siyosiy vaziyat yetilgach, ular tarqoq guruhlarni birlashtirib, o‘z nizomi asosida ochiq jamoat faoliyatini boshlagan<sup>4</sup>. Shu tariqa, XX asr boshlarida Eron zamonaviy siyosiy tashkilotlarning institutsional shakllanishi jarayoni boshlangan bo‘lib, bu holat keyinchalik Konstitutsiyaviy inqilobning ijtimoiy-siyosiy zaminini tayyorlashda muhim omil bo‘lib xizmat qildi.

Mazkur davrda Eron shakllangan siyosiy jarayonlarni nazariy jihatdan konstitutsiyaviy modernizatsiya modeli doirasida talqin etish maqsadga muvofiqdir. Ushbu modelga ko‘ra, an’anaviy jamiyatlarda konstitutsiyaviy inqilob tashqi siyosiy chaqiriqlar, ichki ijtimoiy ziddiyatlar hamda yangi siyosiy g‘oyalarning kirib kelishi natijasida yuzaga keladigan murakkab transformatsion jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Eron misolida ham siyosiy beqarorlik, mustamlakachilik bosimi va ijtimoiy-siyosiy institutlarning institutsional zaifligi konstitutsiyaviy harakatning shakllanishida asosiy strukturaviy omillar vazifasini bajargan.

Buyuk Britaniya imperiyasining mintaqadagi faoliyati, shuningdek, 1905-yilgi Rossiya-Yaponiya urushida Yaponiya tomonidan Yevropa davlatining mag‘lub etilishi eronlik ziyolilar ongida kechikkan bo‘lsada modernizatsiya mumkinligi haqidagi tasavvurni sezilarli darajada kuchaytirdi. Mazkur hodisa konstitutsiyaviy fikr taraqqiyotida muhim psixologik va mafkuraviy burilish nuqtasi bo‘ldi. Yevropa tajribasiga muqobil bo‘lgan Osiyo modeli Eron siyosiy tafakkurida davlat suvereniteti, konstitutsiyaviy boshqaruv va milliy tiklanish g‘oyalarni legallashtiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ldi.

1905-yilda Rossiyada sodir bo‘lgan inqilobiy voqealar Eron transmilliy siyosiy diffuziya jarayonini jadallashtirdi. Rossiyadagi konstitutsiyaviy islohotlar, parlament tuzish tajribasi hamda siyosiy erkinliklar haqidagi axborot va g‘oyalar qisqa muddat ichida Eron siyosiy muhitiga kirib bordi. Aynan ushbu jarayon doirasida Tehron shahrida “Maxfiy jamiyat” (“Anjo‘mane maxfiy”) tashkil etildi. Mazkur jamiyat Eron diniy o‘rta qatlam vakillarini siyosiy jarayonga jalb etishda muhim rol o‘ynadi.

Jamiyat asoschilaridan bo‘lgan mulla Nazim ul-Islom Kermoniy, shuningdek, Said Abdulla Behbehoniy va Said Muhammad Tabataboiy kabi nufuzli shia ruhoniyyat vakillari konstitutsiyaviy g‘oyalarni diniy legitimatsiya vositasida ommaga yetkazishga erishdilar. Nazariy jihatdan bu holat Eron Konstitutsiyaviy inqilobining sekulyar-diniy

<sup>3</sup> Abrahamian E., *Iran between two Revolutions*, New York, 1983, P. 79.

<sup>4</sup> Mehди Малек-заде, *Тарихе энгеллабе машрутийате Иран //История конституционной революции в Иране* // Тегран, С. 237.

sintez modeli asosida shakllanganini ko‘rsatadi. Ya’ni, konstitutsiyaviy talablar G‘arb liberalizmini to‘liq ko‘chirish asosida emas, balki mahalliy diniy-siyosiy an‘analar bilan uyg‘unlashtirilgan holda ilgari surildi.

“Maxfiy jamiyat” tomonidan ilgari surilgan “adolat uyi”ni tashkil etish, markazlashgan soliqlar tizimini joriy etish, ta’lim va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan talablar institutsional konstitutsionallashuv bosqichining dastlabki ko‘rinishlari sifatida baholanishi mumkin<sup>5</sup>. Ushbu talablar davlat hokimiyatini cheklash, qonun ustuvorligini ta’minlash hamda jamiyat va davlat munosabatlarini qayta tartibga solishga qaratilgan edi.

1905-yildan keyingi davrda matbuotning jadal rivojlanishi konstitutsiyaviy inqilobning ommaviy siyosiy safarbarlikka o‘tganidan dalolat beradi. Tehron, Tabriz va Gilon viloyatlarida faoliyat yuritgan ko‘plab gazeta va jurnallar siyosiy ongning shakllantirish, konstitutsiyaviy g‘oyalarni ommalashtirish hamda jamiyatning turli qatlamlarini siyosiy jarayonga jalb etishda muhim vosita bo‘lib xizmat qildi.

1905-1906-yillardagi ommaviy namoyishlar va ish tashlashlar Eron Konstitutsiyaviy inqilobining ijtimoiy koalitsiya modelini yaqqol namoyon etdi. Ruhoniylar, bozor savdogarlari hamda talabalar o‘rtasida shakllangan vaqtinchalik ittifoq konstitutsiyaviy harakatning ijtimoiy bazasini sezilarli darajada kengaytirdi. “Dor ul-Funun” talabalari tomonidan konstitutsiyaviy va respublika boshqaruvi afzalliklarining targ‘ib etilishi Eron jamiyatida yangi siyosiy madaniyat shakllanayotganini ko‘rsatdi.

Ish tashlovchilar sud ishlari va savdo muomalasini vaqtincha to‘xtatgan holda, Tehron shahridagi Buyuk Britaniya elchixonasi bog‘ini siyosiy panoj joyi sifatida foydalandilar. Ushbu holat konstitutsiyaviy talablarning norasmiy norozilik shaklidan institutsional siyosiy talablar darajasiga ko‘tarilganini ko‘rsatadi. Dunyoviy islohot tarafdorlari mamlakatda konstitutsiya joriy etish va vakillikka asoslangan parlament, ya’ni Majlisni ta’sis etish masalasini asosiy siyosiy kun tartibiga chiqardilar. Natijada harakat Eron jamiyatining ijtimoiy qatlamlarini qamrab olgan holda ommaviy siyosiy harakat xususiyatini kasb etdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur siyosiy jarayonlarda Eron hududida faoliyat yuritgan masonlik uyushmalari ham muayyan o‘rin tutdi. Ushbu tashkilotlar a‘zolari, asosan, aristokratik qatlam va yirik savdo burjuaziyasi vakillaridan iborat bo‘lib, ular Buyuk Britaniya va Fransiyadagi mason guruhlarini bilan tashkiliy va mafkuraviy aloqalarga ega edilar. Masonlik doiralari yevropacha andozadagi mo‘tadil konstitutsiyaviy islohotlar tarafdori sifatida namoyon bo‘lib, konstitutsiyaviy harakatning mafkuraviy va tashkiliy infratuzilmasini shakllantirishda ishtirok etdilar<sup>6</sup>.

<sup>5</sup> Abrahamian E., *Iran between two Revolutions*, New York, 1983, P. 79-80.

<sup>6</sup> М. Реза Годс. *Иран в XX веке. Политическая история*. М., 1994, С. 47.

1906-yilda yuzaga kelgan keng ko‘lamli ijtimoiy bosim hamda murakkab siyosiy vaziyat ta’sirida shoh Muzaffariddin Qojar konstitutsiya joriy etish to‘g‘risidagi farmoni e‘lon qilishga majbur bo‘ldi. Mazkur farmon qabul qilinganidan so‘ng mamlakatda siyosiy jamiyatlar va uyushmalar soni sezilarli darajada ko‘paydi. Taniqli tarixchi Mahdiy Malekzoda o‘zining “Eron konstitutsiyachiligi tarixi” asarida ta’kidlashicha, “Ushbu uyushmalar Eron davlat boshqaruvi yakka shaxsning ixtiyoriy xohishi yoki shaxsiy injiqligiga emas, balki qonun ustuvorligiga asoslanishini orzu qilar edilar. Ular qonun oldida kambag‘al bilan boy, oddiy fuqaro bilan mansabdor shaxs o‘rtasida teng huquqiy maqom qaror topishini talab qilar edilar. Shu bois ular despotik boshqaruv tizimini bartaraf etishga qaratilgan siyosiy kurashda faol ishtirok etdilar”<sup>7</sup>. Shundan kelib chiqqan holda, Eron jamiyatining asosiy maqsadi mamlakatni despotik boshqaruv tizimidan xalos etish, davlat hokimiyatini huquqiy me‘yorlar bilan cheklashdan iborat edi.

Mazkur davrda faoliyat yuritgan siyosiy tashkilotlar hali yetarli darajada shakllanmagan bo‘lib, ular aniq tashkiliy tuzilma va izchil siyosiy dasturga ega emas edi. Inqilobiy harakat sharoitida siyosiy strukturalarning institutsional jihatdan zaifligi ularning funksiyalarini ko‘pincha muqobil tashkilotlar yoki uyushmalar bajarishiga olib keldi. Ulardan biri mahalliy darajada ma‘muriy-siyosiy vakolatlarni amalga oshirgan dastlabki anjumanlar, ya‘ni saylanadigan kengashlar bo‘ldi.

Umuman olganda, Eron davlat siyosiy tashkilotlar an‘analari uzoq tarixiy jarayon davomida shakllangan bo‘lib, ular, avval qayd etilganidek, diniy institutlar va ozodlik harakatlari bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanganini ta’kidlash lozim. Xususan, shialikning davlat dini sifatida qaror topishi diniy omilning siyosiy legitimatsiya vositasi sifatida muvaffaqiyatli qo‘llanilgan tarixiy tajribani ifodalaydi. Shuningdek, sufiy tariqatlari, savdogar va hunarmandlarning dastlab diniy xarakterga ega bo‘lgan, keyinchalik esa Eron shaharlarida ma‘muriy-kasbiy tashkilotlar sifatida faoliyat yuritgan sinfiy uyushmalari, shuningdek, “faromushxona” kabi tuzilmalar mamlakatda dastlabki siyosiy-partiyaviy tashkilotlarning shakllanishiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatgan. Ushbu institutlar tashkiliy intizom, ijtimoiy safarbarlik va siyosiy ongning shakllanishi nuqtayi nazaridan muhim maktab vazifasini bajargan.

Mazkur tarixiy meros doirasida anjumanlar ham Eron siyosiy madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida muhim o‘rin tutdi. Ular konstitutsiyaviy davrda jamiyatning turli ijtimoiy qatlamlarini siyosiy jarayonga jalb etish, vakillik tamoyillarini mustahkamlash hamda mahalliy boshqaruvning dastlabki demokratik shakllarini yuzaga keltirishda muhim institutsional rol o‘ynadi.

Konstitutsiyaviy inqilobi davrida anjumanlar Eron siyosiy hayotining muhim markazlariga aylanib, tadqiqotchi Fors Sayks ularni “Konstitutsiyaviy inqilobning umurtqa pog‘onasi”<sup>8</sup> deb ta’riflaydi. Shu bilan birga, anjumanlarning vujudga kelishi

<sup>7</sup> Мехди Малек-заде, Тарихе энгелабе машрутийате Иран //История конституционной революции в Иране // Тегран, С. 199.

<sup>8</sup> Сайкс П., Тарихе Иран// История Ирана// Тегран, Т.2, С. 629.

va faoliyati Eron siyosiy makonining ichki parchalanganligi hamda institutsional jihatdan yetarli darajada markazlashmaganligini yaqqol aks ettirardi. Anjumanlarning ayrimlari dastlab kasbiy yo‘nalishga ega bo‘lib, keyinchalik kasaba uyushmalari va hunarmandlar gildiyalariga aylangan ijtimoiy-kasbiy birlashmalar sifatida shakllandi. Boshqa bir qismi esa muayyan etno-diniy guruhlar (armanlar, zardushtiylar va yahudiylar) vakillaridan tashkil topgan bo‘lib, ular Konstitutsiyaviy harakat doirasida diniy ozchiliklarning manfaatlarini ifodalashga intildilar.

Tehron shahridagi anjuman ruhoniyyat vakillarining qarshiligiga qaramay sof ayollar anjumani sifatida faoliyat yuritgan bo‘lib, bu holat Konstitutsiyaviy inqilob davrida gender omilining siyosiy maydonga kirib kelganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Tehronda faoliyat yuritgan yana bir anjuman ruhoniylar tomonidan boshqarilgan va Konstitutsiyaviy inqilobga qarshi siyosiy fitnalar markaziga aylangan “Anjo‘mane Muhammadiy” alohida ahamiyat kasb etadi. Mintaqaviy miqyosda ham anjumanlar xilma-xil shakllarda namoyon bo‘lgan. Jumladan, Fors ko‘rfazi sohilidagi Bandar-Lange shahrida shia va sunniy anjumanlari alohida faoliyat yuritgan. Resht shahridagi anjuman esa o‘z safiga turli konfessiya vakillarini qabul qilgan ilk siyosiy uyushma sifatida e‘tiborga loyiq bo‘lib, u armanlar, yahudiylar va boshqa diniy ozchilik vakillarining eronliklar bilan teng huquqliligini rasman e‘lon qilgan edi.

Manbalarga ko‘ra, faqat Tehron shahrining o‘zida Konstitutsiyaviy harakat davrida 140 ga yaqin anjumanlar faoliyat ko‘rsatgan. Ular orasida shoh hokimiyatini va konstitutsiya tarafdorlariga qarshi pozitsiyani qo‘llab-quvvatlagan Qojar sulolasi vakillari uchun tashkil etilgan “Anjo‘mane Qojariya” ham mavjud bo‘lgan<sup>9</sup>.

Tehrondagi anjumanlarning konstitutsiyani qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan faoliyati “Milliy inqilobiy qo‘mita” (Komiteye Enqelobe Melli) tomonidan muvofiqlashtirilgan bo‘lib, ushbu qo‘mita inqilobiy harakatning markaziy tashkiliy mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo‘lgan<sup>10</sup>. Shuningdek, Resht va Anzali shaharlarida faoliyat yuritgan Sotsial-demokratik partiya bo‘limlari huzurida tashkil etilgan “Abbosiy anjumani” dehqonlar harakatining shakllanishiga asos bo‘ldi. Mazkur harakat doirasida dehqonlarni yer egalari foydasiga hosilning bir qismini to‘lashdan bosh tortishga, ayrim hollarda esa yerlarni musodara qilishga da‘vat etilgan. Tabriz shahrida esa bir vaqtning o‘zida diniy hamda dunyoviy yo‘nalishdagi anjumanlar faoliyat yuritib, Konstitutsiyaviy harakatning mafkuraviy rang-barangligini ifodalagan.

Konstitutsiyaviy inqilob yillarida Eronda so‘l qanot siyosiy harakati shakllanib, bosqichma-bosqich kuchayib bordi. Ushbu jarayonda 1904-yilda Bokuda tashkil etilgan Rossiya Sotsial-demokratik partiyasining mahalliy bo‘limi muhim o‘rin tutdi. Ayniqsa, uning faoliyati Erondan chiqqan siyosiy muhojirlar orqali mamlakat ichida sotsial-demokratik g‘oyalarning keng yoyilishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. Mazkur harakatning dastlabki tashkiliy shakllaridan biri asli Eron Ozarbayjonidan bo‘lgan

<sup>9</sup> М. Реза Годс. Иран в XX веке. Политическая история. М., 1994, с. 49.

<sup>10</sup> Мамедова Н. М. Исламское государство: соотношение государственных и идеологических приоритетов // Иран: ислам и власть. М., ИВ РАН, 2001. С. 15.

shifokor va dramaturg Narimon Narimonov tomonidan asos solingan ko‘p millatli sotsial-demokratik musulmonlar uyushmasi “Gummat” (Kuch) hisoblanadi<sup>11</sup>. Keyinchalik ushbu tashkilot Rossiya bolsheviklar partiyasi tarkibiga kiritildi. Shu bilan birga, Narimonov 1904-yilda Bokuda tashkil etgan, asosan eronlik muhojirlar faoliyatiga yo‘naltirilgan yana bir siyosiy tuzilma “Sotsialistik xalq partiyasi” (Jamiyate Ejtimoiyune Ommiyun)ning ham tashabbuskori bo‘lgan. Eron Sotsial-demokratik partiyasining tashkil topishida Rossiya Sotsial-demokratik partiyasi faoliyatida bevosita ishtirok etgan, ishchilar orasida keng targ‘ibot va ma’rifiy ishlar olib borish tajribasiga ega bo‘lgan eronlik muhojirlar hal qiluvchi rol o‘ynadilar. Ularning sa’y-harakatlari natijasida sotsial-demokratik g‘oyalar Eron jamiyatining turli qatlamlari, ayniqsa ishchi muhiti orasida keng tarqala boshladi.

Eron Sotsial-demokratik partiyasining siyosiy dasturi mamlakatda kuchli markazlashgan davlat hokimiyatini barpo etish, milliy armiyani tashkil qilish, din va davlat munosabatlarini o‘zaro ajratish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda erkaklar va ayollar uchun majburiy ta’lim tizimini joriy etish kabi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan edi. Mazkur dastur doirasida barcha eronliklar diniy e’tiqodi, etnik mansubligi yoki millatidan qat’iy nazar teng siyosiy huquqlarga ega bo‘lishi lozimligi alohida ta’kidlangan. Jumladan, ish tashlash huquqining tan olinishi partiyaning ijtimoiy adolat va fuqarolik erkinliklariga asoslangan siyosiy pozitsiyasini ifodalay edi. Shu tariqa, Eron Sotsial-demokratik partiyasining faoliyati Konstitutsiyaviy inqilob davrida so‘l qanot mafkurasining institutsional shakllanishiga mustahkam zamin yaratib, keyinchalik mo‘tadil va radikal siyosiy kuchlar o‘rtasidagi mafkuraviy farqlanish jarayonining jadallashuviga xizmat qildi.

Biroq Erondagi partiyaviy tuzilishning dastlabki bosqichlaridayoq markaziy hokimiyat bilan mahalliy muxtoriyatlar yuzasidan so‘l qanot harakati doirasida jiddiy g‘oyaviy va siyosiy qarama-qarshiliklar vujudga keldi. Ushbu ixtiloflar, avvalo, mamlakatning ko‘p millatli ijtimoiy tuzilmasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ular keyinchalik Eron Kommunistik partiyasi “Tude”, shuningdek Milliy frontga ham muayyan darajada ta’sir ko‘rsatdi.

Konstitutsiyaviy harakat keyingi davrdagi ko‘plab siyosiy yetakchilar uchun o‘ziga xos amaliy-siyosiy maktab vazifasini o‘tadi. Jumladan, ozarbayjonlik siyosiy arbob Said Muhammad Shabishtariy Tehronda faoliyat yuritgan Eron Sotsial-demokratik partiyasining matbuot organi hisoblangan “Irone No‘u” (Yangi Eron) gazetasining rahbari bo‘lgan<sup>12</sup>. Shuningdek, mashhur shoir Muhammad Taqiy Bahor Mashhad shahrida joylashgan partiya bo‘limiga rahbarlik qilgan hamda shu yerda o‘z gazetasini nashr etgan. Mashhaddagi sotsial-demokratik partiya faoliyati boshidanoq ruhoniylar tomonidan jiddiy qarshilikka uchragan edi. Gilon viloyatida partiyaning yetakchi arboblaridan biri Husayn Jovdat esa keyinchalik Gilon inqilobi jarayonlarida ham faol qatnashgan.

<sup>11</sup> Агаев С.Л. Иран в прошлом и настоящем. М., 1981.

<sup>12</sup> Агаев С.Л. Иран в прошлом и настоящем. М., 1981.

Eron Sotsial-demokratik partiyasida ozarbayjonliklarning o‘rni alohida ahamiyat kasb etgan. Partiya rahbariyati a’zolarining aksari, jumladan, uning raisi tabrizlik yozuvchi Mahmud Mahmud ham ozarbayjonlik bo‘lgan. Partiyaning eng nufuzli va faol bo‘limlaridan biri Tabriz bo‘limi hisoblanib, uning ijroiya qo‘mitasi “Markaze G‘aybi” (Maxfiy markaz) deb atalgan. Ushbu qo‘mitaga ozarbayjonlik savdogar Hoji Ali Karbalay rahbarlik qilgan. Qo‘mitaning qolgan 11 a‘zosi ham Eron savdogarlaridan iborat bo‘lib, ular orasida Rossiyaga tez-tez safar qilib turgan shaxslar salmoqli o‘rin tutgan. “Maxfiy markaz” o‘z vakillari orqali Tabriz shahridagi anjuman faoliyatida ishtirok etgan hamda mahalliy hokimiyat ustidan siyosiy nazoratni amalga oshirgan. Shuningdek, Tabrizda yashirin ravishda fors tilida nashr etilgan “Shaffoq” gazetasi Sotsial-demokratik partiya matbuot organlari orasida eng maxfiy nashr sifatida ajralib turgan.

## **XULOSA**

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagicha xulosa qilish mumkin:

Eron Konstitutsiyaviy inqilobi mamlakat tarixida siyosiy modernizatsiya jarayonining muhim burilish nuqtasi bo‘lib, u mustamlakachilik bosimi, ichki ijtimoiy ziddiyatlar va yangi siyosiy g‘oyalarning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga kelgan murakkab transformatsion jarayon sifatida namoyon bo‘ldi. Mazkur davrda shakllangan siyosiy uyushmalar, anjumanlar va dastlabki partiyaviy tuzilmalar hali to‘laqonli institutsional shaklga ega bo‘lmagan bo‘lsa-da, ular siyosiy safarbarlik, vakillik va jamoat nazorati mexanizmlarining vujudga kelishida muhim rol o‘ynadi. Ayniqsa, anjumanlar Eron siyosiy madaniyatida mahalliy boshqaruvning dastlabki demokratik shakllarini yuzaga keltirib, keyinchalik partiyaviy tizim shakllanishi uchun zarur ijtimoiy va tashkiliy tajribani ta’minladi.

So‘l qanot harakatining shakllanishi va Eron Sotsial-demokratik partiyasi faoliyati esa mamlakat siyosiy tafakkurida ijtimoiy adolat, tenglik va fuqarolik huquqlari g‘oyalarning mustahkamlanishiga xizmat qildi. Shu bilan birga, markaziy hokimiyat va mahalliy muxtoriyatlar o‘rtasidagi ziddiyatlar Eron siyosiy rivojining keyingi bosqichlariga, jumladan Kommunistik harakat va Milliy front siyosatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Мамедова Н.М. Политические партии Ирана. Публично-правовые исследования. 2006 (1) Public law studies. С. 179-180.
2. Edward G. Browne, The Press and Poetry of Modern Persia, Cambridge University, P. 130.
3. Abrahamian E., Iran between two Revolutions, New York, 1983, P. 79.
4. Мехди Малекзаде, Тарихе энгелабе машрутийате Иран // История конституционной революции в Иране // Тегеран, С. 237.
5. М. Реза Годс. Иран в XX веке. Политическая история. М., 1994, С. 47.
6. Агаев С.Л. Иран в прошлом и настоящем. М., 1981.